


**BUXORO VILOYATINING
CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI**
(2018 yil yanvar-dekabr)


Viloyat bo`yicha joriy yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 8306,5 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 6,8 %ga o`sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 1067,3 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 43,6 %), kichik tadbirkorlik sub`ektlarining tovar aylanmasi 7239,3 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 2,9 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 906,7 mlrd. so`mni (o`tgan yilning shu davriga nisbatan 3,4 %ga kamaygan) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi



2017 yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o`sish sur`atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o`sish sur`atlari Buxoro shahri, Vobkent, G'igduvon, va Kogon tumanlarida qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, (%)




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 43,6 %ga o'sdi va 1067,3 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 12,8 % ulushiga to'g'ri keladi.


Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra, 7239,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2017 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 2,9 % ga o'sdi. viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 87,2%ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)

**2017 yil
yanvar-dekabr**




**2018 yil
yanvar- dekabr**



Yirik korxonalar
 Kichik tadbirkorlik

**Chakana savdo aylanmasida
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)**




Kichik tadbirkorlik
 Yirik korxonalar

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo'yicha Peshku (88,5%), Olot (88,2%) Buxoro (88,1%), Romitan (85,3%), Shofirkon (84,7%) va Qoraku'l (84,5%) viloyatlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 12,8 % ni tashkil etib, eng katta ulush Buxoro shahrida (23,4%), Vobkent (19,9%) va Kogon tumanlarida(12,2%) kuzatilgan.

Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi

	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik tadbirkorlik (mlrd.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Buxoro viloyati	8306,6	106,8	7239,3	102,9
Buxoro sh.	2799,8	109,6	2161,7	103,3
Kogon sh.	319,2	103,1	307,1	100,9
<i>tumanlar:</i>				
Olot	200,1	102,0	197,6	103,0
Buxoro	399,6	113,9	398,5	108,4
Vobkent	480,7	109,4	385,9	100,4
G'ijduvon	1436,8	102,5	1226,5	99,2
Kogon	165,7	103,9	136,3	107,7
Qoraku'l	785,2	102,0	769,9	103,4
Qorovulbozor	134,2	104,1	123,4	111,3
Peshku	260,8	102,2	253,5	102,6
Romitan	509,4	102,5	498,3	102,3
Jondor	485,7	102,9	458,1	107,3
Shofirkon	329,5	109,6	322,4	102,6

Hududlarda kichik tadbirkorlik sub`ektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)



2018 yil yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo`yicha aholi jon boshiga 4407,1 ming so`mni tashkil qilib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 5,52 %ga ko`paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2018 yilning yanvar-dekaabr oylarida o`tgan yilga nisbatan respublikamizning barcha hududlarida o`sish ko`rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko`rsatkilar Buxoro shahri 10100,3 ming.so`m), Qorovulbozor (7495,7 ming.so`m), va Kogon tumanida (5285,3 ming. so`m) hissasiga to`g`ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo`yicha eng kam ko`rsatkichlar Shofirkon tumanida (2037,5 ming.so`m), Olot (2073,8 ming.so`m) va Peshku tumanida (2189,7 ming so`m) qayd etilgan. Ushbu ko`rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko`rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Buxoro viloyati	4407,1	105,2
Buxoro sh.	10100,3	109,2
<i>Kogon sh.</i>	5285,3	102,4
tumanlar:		
Olot	2073,8	101,0
Buxoro	2475,6	99,9
Vobkent	3539,4	112,1
G'ijduvon	4763,9	107,8
Kogon	2200,9	100,0
Qoraku'l	4913,4	102,1
Qorovulbozor	7495,8	100,3
Peshku	2189,7	102,2
Romitan	3704,5	100,4
Jondor	2865,3	100,6
Shofirkon	1906,8	101,4

Jumladan, 2018 yilning yanvar-dekabr oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,9 %ni tashkil etib,


238,3 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 5,6 % o`sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 88,1 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.

**BUXORO VILOYATINING
ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**
(2018 yil yanvar-dekabr)

Yil boshidan viloyat bo`yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 2104,3 mlrd. so`mni tashkil qildi va 2017 yilning shu davriga nisbatan 8,6 %ga o`sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub`ektlariga to`g`ri kelib, mazkur hajm 2018 yil yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko`ra, 1305,1 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 12,2 %ga o`sdi. Ushbu sektorning umumiyligi ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 62,0 %ni tashkil qilmoqda. Bu ko`rsatkich boshqa tumanlar bilan taqqoslaganda, Peshku tumanida (98,8%), Buxoro tumanida (95,7%) va Olot tumanida (95,2%) tumanlarida yuqori bo`lgan.

**Yirik va kichik korxonalarining
ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**



Kichik korxonalar


Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 38,0 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarning aksariyati Qorovulbozor (97,9%), Gijduvon (77,8%) va Qorakul (76,4%) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Buxoro viloyati	2104,3	108,6	799,2	103,2	1305,1	112,2
Buxoro sh.	721,8	109,1	81,0	165,3	640,8	104,6
<i>Kogon sh.</i>	86,3	101,2	25,7	97,9	60,6	102,7
tumanlar:						
Olot	42,1	120,7	2,0	177,7	40,1	118,7
Buxoro	94,7	103,5	4,1	125,7	90,6	102,7
Vobkent	119,9	116,9	83,4	104,1	36,6	162,8
G'ijduvon	380,9	112,5	296,5	110,3	84,4	121,0
Kogon	33,7	102,2	10,8	87,0	22,8	111,4
Qoraku'l	214,6	106,9	164,1	112,3	50,6	92,4
Qorovulbozor	33,7	101,1	33,0	100,8	0,7	117,6
Peshku	46,3	113,8	0,5	53,4	45,8	115,3
Romitan	130,5	105,2	41,9	62,6	88,6	155,1

Jondor	111,5	102,8	16,8	40,0	94,7	142,4
Shofirkon	88,4	106,1	39,5	88,2	48,9	126,8

**Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining
o'tgan yilga nisbatan o'zgarish sur'atlari, (%)**



Ulgurji tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o'sish sur'ati Qorovulbozor (101,1 %) tumanida qayd etildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi
bo'limi
Tel.:71-230-83-22